

BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTI VA UNGA O'ZBEKISTONNING A'ZOLIK MASALALARI

Mirzayev Kamoliddin Abdullayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14078811>

Annotatsiya. Ma'lumki, Jahon savdo tashkiloti bugungi davr xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlararo ko'p tomonlama savdo tizimini muvofiqlashtirib turuvchi xalqaro tuzilma hisoblanadi. Dunyo savdosining 95 foizdan ortig'i ushbu tashkilotga a'zo davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Tashkilotning asosiy vazifasi erkin va shaffof savdo aloqalarini tartibga solish va savdo jarayonlarni kengaytirish orqali tashkilotga a'zo davlatlarning avvalo iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda umumiy hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan.

Mazkur maqsadlar o'z navbatida bugungi rivojlanish bosqichida O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlarning maqsadlariga to'la to'kis mos keladi. Ushbu maqolada Jahon savdo tashkiloti va unga O'zbekistonning a'zo bo'lishida amalga oshirilayotgan ana shu islohotlar, tahlil va natijalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim, raund, Urugvay raundi, GATT, savdo tariflari, norezident, foydali modellar, internatsionallashuv, evolyutsiya, TRIPS, jahon xo'jaligi.

ISSUES OF UZBEKISTAN'S MEMBERSHIP IN THE WORLD TRADE ORGANIZATION

Abstract. It is known that the World Trade Organization is an international structure that coordinates the interstate multilateral trade system in today's international economic relations. More than 95 percent of world trade is accounted for by member states of this organization. The main task of the organization is to ensure stable economic development of the member states of the organization and to improve the general way of life by regulating free and transparent trade relations and expanding trade processes. These goals, in turn, fully correspond to the goals of large-scale economic, social and legal reforms that are being implemented in Uzbekistan at the current stage of development. This article talks about the reforms, analysis and results of the World Trade Organization and Uzbekistan's membership in it.

Key words: World Trade Organization, General Agreement on Tariffs and Trade, round, Uruguay Round, GATT, trade tariffs, non-resident, utility models, internationalization, evolution, TRIPS, world economy.

ВОПРОСЫ ЧЛЕНСТВА УЗБЕКИСТАНА ВО ВСЕМИРНОЙ ТОРГОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. Известно, что Всемирная торговая организация является международной структурой, координирующей систему межгосударственной многосторонней торговли в современных международных экономических отношениях. Более 95 процентов мировой торговли приходится на государства-члены этой организации. Основной задачей организации является обеспечение стабильного экономического развития государств-членов организации и улучшение общего образа жизни путем регулирования свободных и прозрачных торговых отношений и расширения

торговых процессов. Эти цели, в свою очередь, полностью соответствуют целям масштабных экономических, социальных и правовых реформ, реализуемых в Узбекистане на современном этапе развития. В данной статье говорится о реформах, анализе и результатах Всемирной торговой организации и членстве в ней Узбекистана.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, Генеральное соглашение по тарифам и торговле, раунд, Уругвайский раунд, ГАТТ, торговые тарифы, нерезиденты, полезные модели, интернационализация, эволюция, ТРИПС, мировая экономика.

Kirish

Xalqaro savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng qadimgi shakli hisoblanadi. Tarixan olib qaralsa, xalqaro savdo jahon xo'jaligining shakllanishidan ancha ilgari mavjud bo'lgan va uning bevosita o'tmishdoshi bo'lgan desak xato bo'lmaydi.

Aynan xalqaro savdoning rivojlanishi jahonda mashinasozlik sanoatining yuksalishi uchun iqtisodiy sharoit yaratganligini, mashina ishlab chiqarilishi uchun boshqa davlatlarning ham ommaviy tarzda talabi ushbu sohaning o'sishiga keskin ta'sir qildi. Bu o'z navbatida, jahon xo'jaligining shakllanishiga asos soldi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning internatsionallashuv jarayonini tezlashtirdi. Xalqaro savdoning bugungi holatiga kelguniga qadar o'zining tarixiy evolyutsiya jarayonlarida davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama tashqi savdo bitimlaridan tortib, uzoq muddatga mo'ljallangan keng ko'lamli savdo-iqtisodiy hamkorlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Urushdan keyingi davrga nazar tashlasak, davlatlar ikkinchi jahon urushi talofotlaridan ko'rgan zararlarni qoplash va iqtisodiyotni tiklash uchun xalqaro munosabatlarda avvalo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratdi. Ushbu munosabatlar hamkorlik jarayonlarining o'ziga xosligi, ayniqsa, uzoq muddatli tendensiyalar, savdo munosabatlarining turli shakllari va xususiyatlari hamda bir-biridan farq qiluvchi hamkorlik usullari negizida namoyon bo'ladi.

O'z navbatida bir jihatni tan olish zarurki, xalqaro savdoning rivojlanishida davlatlarning yagona tashkilot ostida iqtisodiyotda bir xil tamoyillarni qo'llagan holda hamkorlikni amalga oshirish jarayonlari turli to'siqlar yoki ziddiyatlarsiz erishilmagan. Zero, har qanday hamkorlik shakllariga kirishishda har bir davlat uchun avvalo milliy manfaatlar birinchi o'rinda turishi hech kimga sir emas.

U yoki bu mamlakatning milliy savdo-iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlarini boshqa mamlakat yoki mamlakatlar guruhi tomonidan kamsitilishi ko'pincha savdo mojarolari, bir so'z bilan aytganda "savdo urushlari"ning kelib chiqishiga olib keladi. Davlatlar o'rtasidagi savdo mojarolarining avj olishiga esa turli omillar, jumladan, bojxona tariflari, hududiy bog'liqliklar yoki tovarlarga nisbatan qo'yiladigan narxlar, shuningdek sanitariya qoidalari, ekologiya va atrof-muhit bilan bog'liq talablar va boshqa omillar bevosita sabab bo'lishini inkor qilib bo'lmaydi.

Savdo urushlari zamonaviy xalqaro munosabatlarning davlatlar o'rtasida tez-tez uchraydigan barqaror an'anasiga aylanib qoldi desak xato bo'lmaydi. Ushbu mojarolar alohida mamlakatlar munosabatlarini ham yoki davlatlarning savdo-iqtisodiy guruhlarini ham chetlab o'tmaydi albatta.

Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim (GATT):

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar jarayoni jahon bozorlarida kuchayib borayotgan raqobat, ichki bozorlarni himoya qilish, bandlikni ta'minlash zarurati va boshqalar xorijiy davlatlarni o'z ishlab chiqaruvchilari va kommertsantlarini faol himoya qilishga, siyosiy-iqtisodiy mojarolarga qo'shilishga majbur qilayotganligini ko'rsatmoqda.

O'z navbatida tan olish joizki, savdo mojarolarida qatnashuvchi mamlakatlar nizolarni haddan tashqari keskinlashtirishga intilmaydi va ushbu kelishmovchiliklarni uzoq muddatli muzokaralar, maslahatlashuvlar, xalqaro tashkilotlarga shikoyatlar bilan murojaat qilish yo'llari orqali hal etishga intiladi.

Xalqaro savdoni tartibga solish uchun uni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish va savdoni erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Bu o'rinda jahon savdosining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan tashkilotlardan biri sifatida albatta Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim (GATT) tashkilotini keltirish muhim sanaladi. GATTni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma dastlab 1947-yilda 23 ta davlat tomonidan imzolangan bo'lib, 1948-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.¹

GATT - ishtirokchi davlatlarning o'zaro savdosini olib borish va a'zo davlatlar tomonidan tartibga solish tamoyillari, huquqiy me'yorlari, qoidalarini o'z ichiga olgan ko'p tomonlama bitim bo'lib, eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bo'ldi va uning faoliyati jahon savdosining 94 foizini qamrab oldi.

GATTning asosiy yutuqlaridan biri davlatlararo savdo munosabatlarida o'zaro kamsitishlarsiz savdo qilishdan iboratligi, GATTning har bir a'zosi boshqa har qanday a'zo davlat bilan teng munosabatda bo'lishi kerak edi.² Tashkilotning faoliyati raundlarga birlashtirilgan holda ko'p tomonlama muzokaralar orqali amalga oshirildi. GATT o'z tarixida yig'ilishlarning sakkizta raundini o'tkazdi. Jumladan, birinchisi 1947-yil aprel oyida boshlangan bo'lsa, oxirgisi 1993-yil dekabr oyida yakunlangan. O'z navbatida, hozirgi kundagi Doha (Qatar) taraqqiyot bosqichi 2001-yilda boshlanib, haligacha tugallanmagan. Tashkilot doirasida o'tkazilgan raundlarning har biri muhim yutuq va natijalarga ega bo'ldi. Ushbu raundlar o'rtacha bo'xona bojining o'n barobarga qisqarishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu ko'rsatkich 40% ni tashkil etgan bo'lsa, 90-yillarning o'rtalarida 4 % atrofida bo'ldi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) tashkil etilishi:

1993-yil dekabr oyida, yetti yillik muzokaralardan so'ng, GATT 117 ta davlat, shu jumladan AQSH o'rtasida kelishuvga erishdi. Ushbu raund Urugvayda bo'lib o'tdi va shuning uchun Urugvay raundi deb nomlandi. Ko'p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvay raundi natijalarini o'zida mujassam etgan yakuniy hujjat ushbu raundda erishilgan kelishuv bo'lib, 1994-yil aprel oyida imzolandi va nihoyat mazkur bitim doirasida Jahon savdo tashkiloti (JST) tashkil etildi.³

O'z navbatida, Jahon savdo tashkiloti ta'sis etilishi munosabati bilan GATT o'z faoliyatini to'xtatdi.

¹Text of General Agreement on Tariffs and Trade, https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47.pdf

²General Agreement on Tariffs and Trade, https://www.law.cornell.edu/wex/general_agreement_on_tariffs_and_trade_%28gatt%29

³GATT/ WTO <https://law.duke.edu/sites/default/files/lib/gatt.pdf>

Jahon savdo tashkiloti davlatlar o'rtasida o'zaro savdo kelishuvini amalga oshiruvchi tashkilot bo'lib, Doha shahrida o'zining dastlabki raundini boshladi. Tashkilotga a'zo bo'lish uchun davlatlar avvalo a'zolik uchun ariza topshirishi lozim.⁴ Bugungi kunga kelib umumiy a'zolar soni 166 ta davlatni tashkil etadi.

Umuman olganda, Jahon savdo tashkiloti faoliyatida asosan 1996-yildan boshlab GATTning o'rnini egallaganligi sezildi desak xato bo'lmaydi. Chunki, ushbu davrda 82 ta davlat uning asoschi-a'zolari sifatida birlashdi va 1998-yilga kelib tashkilotga 132 ta davlat a'zo bo'ldi.

Rasmiy tarzda faoliyati GATT bilan ketma-ketlikka asoslangan deb qaralsada, aslida JST bir qator parametrlari bo'yicha GATTdan farq qiladi.

Misol uchun, JSTning alohida yuridik mohiyati uning a'ziligiga kirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. JST tashkil topganidan keyin qator rivojlangan G'arb mamlakatlarining savdo rejimlarini mehnat va ekologik standartlar bilan bog'lash evaziga bir qator o'ziga xosliklar paydo bo'ldi. Xususan, ushbu standartlar past bo'lgan mamlakatlar ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi hisobiga "bozorga xos bo'lmagan" raqobat afzalliklariga ega bo'ladi.

JSTning vazifalari savdo jarayonini ma'lum qoidalarga asoslangan tizim doirasida tartibga solishda yordam berish, hukumatlar o'rtasidagi savdo nizolarini xolisona hal qilish, savdo muzokaralarini tashkil etishdan iboratdir. Ushbu faoliyat asosida 60 ta JST bitimlari - xalqaro savdo va savdo siyosatining asosiy huquqiy me'yorlari yotadi. Ushbu kelishuvlarga asoslangan tamoyillar kamsitishning yo'qligi (eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim va milliy rejim to'g'risidagi qoida), erkin savdo shartlari, raqobatni rag'batlantirish va eng kam rivojlangan mamlakatlar uchun qo'shimcha qoidalarni o'z ichiga oladi. JSTning maqsadlaridan biri proteksionizmga qarshi kurashishdir.

Tashkil etilganidan beri JST faoliyati telekommunikatsiya, axborot-texnologik uskunalar va moliyaviy xizmatlar bozorlarini ochish bo'yicha muvaffaqiyatli muzokaralar uchun forum bo'lib xizmat qilmoqda. U 200 dan ortiq savdo nizolarini hal qilishda ishtirok etgan va 1986-1994 yillardagi Jahon savdo muzokaralarining Urugvay bosqichida erishilgan kelishuvlarning bajarilishini kuzatishda davom etmoqda. O'z navbatida, ushbu hujjatlar zamonaviy xalqaro savdoning huquqiy asosi hisoblanadi.

2001 yilda JST Doha (Qatar) shahrida qabul qilingan Taraqqiyot kun tartibi deb nomlanuvchi ko'p tomonlama savdo muzokaralarining yangi raundini boshladi.⁵

JSTga a'zo barcha mamlakatlar "Ko'p tomonlama savdo bitimlari" atamasi bilan birlashtirilgan asosiy bitimlar va yuridik hujjatlarni bajarish majburiyatini oladi. Shunday qilib, huquqiy nuqtayi-nazardan, JST tizimi o'ziga xos ko'p tomonlama shartnoma (kelishuvlar paketi) bo'lib, uning normalari va qoidalari bilan tovarlar va xizmatlar bilan jahon savdosining taxminan 97 foizi tartibga solinadi.⁶

Bir so'z bilan aytganda, ikkinchi jahon urushidan keyingi ikkita voqea savdo sohasidagi urushdan oldingi keskinlikning takrorlanishiga yo'l qo'ymadi. Yevropada ko'mir va temir rudasi qazib olish hamda po'lat ishlab chiqarish sohasida xalqaro hamkorlik rivojlandi.

⁴General Agreement on Tariffs and Trade,

https://www.law.cornell.edu/wex/general_agreement_on_tariffs_and_trade_%28gatt%29

⁵Всемирная торговая организация, <https://www.un.org/ru/wto/>

⁶Центр экспертизы ВТО, <https://wto.ru/about-WTO/info-WTO/>

Global darajada esa Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim tuzildi. Ikkala yo'nalish ham muvaffaqiyatli rivojlandi va hozirda ular sezilarli darajada to'ldirilib kengaytirildi. Ulardan biri Yevropa Ittifoqiga aylangan bo'lsa, ikkinchisi esa Jahon Savdo Tashkilotiga aylandi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishdagi islohotlar:

Keyingi yillarda O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha mamlaktimizda qator islohotlar amalga oshirildi. Buni a'zo davlatlar bilan o'zaro ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralarni yakunlash borasida olib borilayotgan ishlarda ko'rish mumkin.

Ma'lumki, JST doirasida a'zo davlatlar tomonidan intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish bo'yicha minimal talablarni belgilab beruvchi TRIPS bitimi amal qiladi. O'z navbatida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish tashkilotga a'zo bo'lishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur sohada amalga oshirilgan islohotlardan biri 2024 yil 15 fevralda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganligi bo'ldi.

Ushbu Qonun intellektual mulk sohasi, reklama, dori vositalari va farmatsevtika yo'nalishlari hamda davlat bojiga oid qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutadi.

Misol uchun, avval xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 10 baravari, mahalliy yuridik shaxslar uchun esa 1 baravari miqdorida o'rnatilgan bo'lsa, endilikda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra davlat boji har ikkala yuridik shaxslar uchun birxillashtirilishi milliy qonunchilikni JSTning Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitimiga muvofiqlashtirdi.⁷

Yana bir misol, avval ixtiroga patent olish uchun rezidentlardan BHMning 1 baravari, norezidentlardan esa BHMning 17 baravari miqdorida patent boji to'lash belgilangan bo'lsa, endilikda patent boji to'lovchilari jismoniy va yuridik shaxs deb o'zgartirilib, to'lovlar birxillashtirildi.

Ixtiro va foydali modellarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda nogironligi bo'lgan shaxslar, ta'lim oluvchi shaxslar, ilmiy-pedagogik xodimlar, ilmiy tashkilotlarga, shuningdek kichik tadbirkorlik subyektlariga to'lovlar miqdorini kamaytirish bo'yicha imtiyozlar berish, dori vositasini yaratish jarayonida o'tkaziladigan tadqiqotlar natijasida olinadigan klinik oldi va klinik sinovlar natijalarini himoya qilishni ko'zda tutuvchi qoidalar kiritildi.⁸

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya tarkibi tasdiqlandi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimi kiritildi.

⁷O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-4680944>

⁸O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-6800326>

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-iyuldan boshlab JST qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish ta'qiqlanishi belgilandi.⁹

Shu bilan birga, Adliya vazirligiga ma'muriy islohotlar doirasida ilgari maqbullashtirilgan shtat birliklari hisobidan qo'shimcha 5 ta shtat birligini ajratgan holda vazirlikka milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish funksiyasi yuklatildi.

O'z navbatida, mazkur amalga oshirilayotgan islohotlar hamda JST bitimlari talablariga milliy qonunchiligimizni muvofiqlashtirish tashkilotga a'zo davlatlar bilan olib borilayotgan muzokaralar jarayonida kelgusida sezilarli ijobiy hissa qo'shadi va a'zolik masalalarining tezlashtirilishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, JSTga a'zolik O'zbekistonga yangi sarmoyalar asosida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshishi, iste'molchilarda tovarlar va xizmatlarni tanlash imkoniyati kengayishi, monopoliyaning oldi olinishi, bu o'z navbatida korrupsiya darajasini kamaytirishga yordam beradi deyish mumkin.

REFERENCES

1. Text of General Agreement on Tariffs and Trade, https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47.pdf
2. General Agreement on Tariffs and Trade, https://www.law.cornell.edu/wex/general_agreement_on_tariffs_and_trade_%28gatt%29
3. GATT/ WTO <https://law.duke.edu/sites/default/files/lib/gatt.pdf>
4. General Agreement on Tariffs and Trade, https://www.law.cornell.edu/wex/general_agreement_on_tariffs_and_trade_%28gatt%29
5. Всемирная торговая организация, <https://www.un.org/ru/wto/>
6. Центр экспертизы ВТО, <https://wto.ru/about-WTO/info-WTO/>
7. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-4680944>
8. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-6800326>
9. "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>

⁹ "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>